O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)* **bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

ЎзР ОЎМТВ
Буйруқ № 367
« 21 » 08 2023 йил

Toshkent - 2023

**ISHLAB CHIQILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

# MUNDARIJA


| T/r | | bet |
|---|---|---|
| 1. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi ........ | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi ........ | 4 |
| 1.1.1. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi ........ | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari........ | 4 |
| 1.2. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi ........ | 4 |
| 1.2.1. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari ........ | 4 |
| 1.2.2. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obye'ktlari ........ | 4 |
| 1.2.3. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari........ | 5 |
| 1.2.4. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari........ | 5 |
| 2. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar ........ | 7 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar........ | 7 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar........ | 7 |
| 2.3. | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar........ | 8 |
| 2.3.1. | Kvalifikatsiya........ | 9 |
| 2.3.2. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar........ | 9 |
| 2.3.3. | *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi........ | 9 |
| | Bibliografik ma'lumotlar........ | 10 |
| | Kelishuv varag'i........ | 11 |

## 1. *60410100- Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

***60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo'llanish sohasi.**

**1.1.1. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi qishloq xo'jaligi sohasidagi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari (sillabuslari)ni ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, akademik faoliyat va registrator (o'quv) bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlari (sillabuslari)ni o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abuturiyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

***60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)*** - iqtisodiyot sohasidagi yo'nalish bo'lib, u biznesni boshqarishda buxgalteriya hisobi va auditning o'rni, buxgalteriya hisobi va auditning usullari va tamoyillari, buxgalteriya hisobi, audit va biznes tahlilni tashkil etish va axborot manbalari, aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, moliyaviy natijalar hisobi, tahlili va auditi, ishlab chiqarish va davr xarajatlari hisobi, tahlili va auditi, moliyaviy hisobotning xalqaro standarti hamda hozirgi kunda moliyaviy hisob va auditning rivojlanish an'analari, istiqboli hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab oladi.

**1.2.2. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obye'ktlari:**

- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi, Iqtisodiyot va moliya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari hamda moliyaviy tarkib bo'yicha davlat boshqaruvi organlari;
- fermer xo'jalirlari, klasterlar va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari;
- tijorat banklari va ularning hududiy bo'linmalari;
- investitsiya kompaniyalari, xoldinglar, xalqaro tashkilotlar va ularning hududiy

bo'linmalari;

- agrar sektorda faoliyat yurituvchi turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar;
- reyting agentliklari, auditorlik va konsalting xizmatlari tashkilotlari;
- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida korxona va muassasalar faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari.

***60410100 – Buxgalteriya hisbi va audit (qishloq xo'jaligida)*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasbiy ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

**1.2.3. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- moliyaviy-iqtisodiy;
- hisob, tahlil va nazorat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida);
- tadbirkorlik.

**1.2.4. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

*60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obye'ktlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatida:**

- agrar soha korxonalar, xususan, fermer xo'jaliklari buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish va boshqarishga doir O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarini bilishi hamda ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;
- investitsion loyihalarning muqobil variantlarini ishlab chiqish, maqbulini asoslay olish;
- agrar soha korxonalarida reja va budjetlarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish uchun zarur dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash;
- operatsion va moliyaviy budjetlarni ishlab chiqish, budjetlashtirish tizimini joriy etish;
- agrar soha subyektlari faoliyatining samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini qo'llash;
- agrar soha subyektlarida auditni tashkil etish va o'tkazish;
- agrar soha subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish.

**Hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

- kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;
- buxgalteriya hisobini yuritish;
- iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;
- hisob-kitoblarni tahlil qilish va o'z yechimini asoslash, moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlarga qayta ishlov berishning turli vositalaridan foydalanish;
- moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning turkumlanishiga asoslangan standart nazariy va ekonometrik modellarni yaratish, ulardan olingan natijalarni tahlil qilish va izohlash;
- xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish;
- budjetlashtirish va prognozlash uchun buxgalteriya, moliyaviy va boshqa axborotlarni tahlil qilish va sharhlash;
- moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi va tendentsiyalarini tahlil qilish;

- auditorlik faoliyati bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ilmiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyati muammolarini chuqur tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash;
- moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash;
- taqdim etilgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va ularning moliyaviy-iqtisodiy natijalarini tahlil qilish;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va texnik vositalardan foydalanish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishni tashkil etish hamda tartibga solish;
- buxgalterlik va auditorlik faoliyatlarini tashkil qilish hamda boshqarish jarayonlarini rejalashtirish, yuritish, tahlil qilish va optimallashtirish, buxgalterlar va auditorlar jamoasini boshqarish;
- ish rejasi tuzish, bajarilishini nazorat qilish va bajarilgan ishlar natijalarini baholash;
- biznes-jarayonlarini boshqarish boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish;
- biznesni boshqarishda tomonlarning qiziqishlari, talabni tahlil qilish va aniqlay olishi, bozor talabidan kelib chiqib faoliyatni moslashtira olishi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishdagi muammolarni aniqlash va yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- raqamli iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib biznes faoliyatni chuqur tahlil qilish asosida samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish.

**Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda biznes faoliyatini boshqarish, korxona faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlariga baho berish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari mohiyatini tushunish hamda aniqlangan muammolar yechimini ishlab chiqish;
- buxgalteriya hisobi va audit tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarda buxgalteriya hisobi va audit borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- mavzuga oid ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash va ilmiy axborotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etish.

**Pedagogik faoliyatida (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida):**

- umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha iqtisodiy fanlardan nazariy-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkil etishga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok qilish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik ta'minotni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy yondashuv asosida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasida o'z salohiyatini uzluksiz ravishda oshirib borish.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## 2. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- matematikaning chiziqli algebra, matematik analiz, differensial va integral hisob hamda differensial va chekli ayirmali tenglamalar yordamida ijtimoiy-iqtisodiy sohada qo'llanilayotgan modellarni tizimli o'rganishni tahlil qilishi va baholashi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar**:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- xo'jalik subyektlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishni bilishi;
- buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlarini, maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rgana olishi;
- buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari va standartlari, usullari yuzasidan tasavvurga ega bo'lishi, hisob siyosatini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- mavzu bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- internet tarmog'idan eng yangi ilmiy-texnik yutuqlar haqida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llash jarayonlarida qatnashish malakasiga ega bo'lish;
- buxgalteriya hisobi va auditning mohiyatini o'rganish, konsepsiyalar, tamoyillar va maqsadlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish malakasiga ega bo'lish;
- daromad va xarajatlar shakllanishi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, auditning xalqaro standartlarini bilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- iqtisodiy tahlil usullari, asosiy vositalardan foydalanishning samaradorligi va xo'jalik yurituvchi subyekt rentabelligi, xo'jalik yurituvchi subyekt va tashkilotlarining moliyaviy holatini tahlil qilish malakasiga ega bo'lish;
- auditning obye'kti, sifati va sohalari hamda audit o'tkazishni tashkil etishni bilish;
- audit standartlarini, auditni tartibga solishning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish malakasiga ega bo'lish;
- ichki xo'jalik nazoratini o'rnatishda konsalting xizmatlarni ko'rsatish va maslahatlar berish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zaruriy uslubiy materiallar bilan ta'minlash malakasiga

ega bo‘lishi;

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya xizmati ishini rejalashtirish va tashkil etishni bilish;
- ichki audit xizmati ishini rejalashtirishni bilish;
- ichki audit xizmati ishini amalga oshirishni bilish;
- tashqi auditorlik tekshiruvlarini tashkil qilish va o‘tkazish malakasiga ega bo‘lish;
- buxgalteriya hisobi va auditda axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish malakasiga ega bo‘lish;
- samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishni bilish;
- ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash va nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish
- iqtisodiy kategoriya va qonunlar, iqtisodiy jarayon va hodisalar mohiyatini tushunish, iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish mexanizmlarini bilishi;
- mikroiqtisodiyotning asosiy kategoriyalari, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ularni hisoblash orqali pul-kredit, budjet-soliq va tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yuzasidan ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- menejment asoslarini bilishi, funksiya, usul va tamoyillarini chuqur o‘rganishi, qarorlarni qabul qilish va ularning ijrosi bo‘yicha nazoratini olib borishi, bozor va unga xos qonunlar va xavf-xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- iqtisodiy obye’ktlar va jarayonlarning miqdoriy o‘zaro bog‘liqligini matematik va statistik metodlar hamda modellar yordamida o‘rganishi;
- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish hamda moliyaviy ko‘rsatkichlarini aniqlashi;
- sug‘urtaning mazmun-mohiyati, shakllari, sug‘urta faoliyati klassifikatori va sug‘urtaning normativ asoslari, risk transferi va transformatsiyasi hamda qoplama to‘lovchi bo‘yicha sug‘urta bozori subyektlari faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini bilishi;
- soliq turlari va ularni hisoblash usullarini bilishi;
- moliyaning mazmun-mohiyati, moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etishning nazariy-amaliy jihatlari va ularni boshqarish usullarini bilishi;
- pul va bank nazariyasi, amaliyoti va tadrijiy rivojlanish bosqichlari hamda istiqbolini markaziy bank va tijorat banklarining funksional maqsadi va tashkiliy tuzilishini bilishi, aktiv va passiv bank operatsiyalarini qo‘llay olishi.

**2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni

kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malakaviy amaliyot o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

**2.3.1. Kvalifikatsiya:** buxgalter-auditor, iqtisodchi.

**2.3.2. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)* ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

| O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|---|---|---|
| Majburiy fanlar | 5340 | 174 |
| Tanlov fanlar | 1260 | 42 |
| Malakaviy amaliyot | 600 | 20 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 120 | 4 |

**2.3.3. *60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)* bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **5340** | **174** | |
| 1.01 | O‘zEYaT1204 | O‘zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 2 |
| 1.02 | DINSH1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | FALS1204 | Falsafa | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | XORIJT1108 | Xorijiy til | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.05 | O‘TO‘SQB1104 | O‘zbek (rus) tili: O‘zbek tilini sohada qo‘llash | 120 | 4 | 1 |
| 1.06 | IQTNAZ1106 | Iqtisodiyot nazariyasi | 180 | 6 | 1 |
| 1.07 | BEZBUHHB1606 | Biznesda buxgalteriya hisobi (Qishloq xo‘jaligida) | 180 | 6 | 6 |
| 1.08 | IQTTAH1204 | Iqtisodiy tahlil | 120 | 4 | 2 |
| 1.09 | IAXKOMTX1106 | Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar | 180 | 6 | 1 |
| 1.10 | MATEM1106 | Matematika 1 | 300 | 6 | 1 |
| 1.11 | MATEM1204 | Matematika 2 | 120 | 4 | 2 |
| 1.12 | STAT1306 | Statistika | 180 | 6 | 3 |
| 1.13 | AUDKIRB1306 | Auditga kirish | 180 | 6 | 3 |
| 1.14 | MIKIQB1306 | Mikroiqtisodiyot | 180 | 6 | 3 |
| 1.15 | BOSHHKB1210 | Boshqaruv hisobiga kirish | 300 | 10 | 2,3 |
| 1.16 | BUXHKB1212 | Buxgalteriya hisobiga kirish | 360 | 12 | 2,3 |
| 1.17 | MOLASB1406 | Moliya asoslari | 180 | 6 | 4 |
| 1.18 | SSQTB1406 | Soliq va soliqqa tortish | 180 | 6 | 4 |
| 1.19 | XIZKO‘RBH1404 | Xizmat ko‘rsatish subyektlarida buxgalteriya hisobi | 120 | 4 | 4 |
| 1.20 | QXMOLHIS1408 | Qishloq xo‘jaligida moliyaviy hisobot | 240 | 8 | 4,5 |
| 1.21 | MOLHB1512 | Moliyaviy hisob | 360 | 12 | 5,6 |
| 1.22 | BOSHQHHB1606 | Boshqaruv hisobi | 180 | 6 | 6 |
| 1.23 | QXMOLTL1512 | Qishloq xo‘jaligida moliyaviy tahlil | 360 | 12 | 5,6 |
| 1.24 | AUDITB1712 | Audit | 360 | 12 | 7,8 |
| 1.25 | QXBHB1706 | Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi | 180 | 6 | 6 |
| 1.26 | AUDXQST1706 | Auditning xalqaro standarti | 180 | 6 | 6 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **1260** | **42** | |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar* | 1260 | 42 | 4,5,6,7,8 |
| | | **Jami** | **6480** | **216** | |
| | MALAMAL2420 | **Malakaviy amaliyotlar** | 600 | 20 | 4,6,8 |
| | | **Yakuniy davlat attestatsiyasi** | 120 | 4 | 8 |
| | | **Jami** | **720** | **24** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 657 Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obye'kti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, agrosanoat majmui, fermer xo'jaliklari, agroklasterlar, moliya, investitsion loyiha, operatsion va moliyaviy budjetlar, budjetlashtirish, faoliyat samaradorligi, buxgalteriya hisobi, audit, ichki audit, tahlil, ma'lumotlarni yig'ish, moliyaviy hisob, moliyaviy hisobot, statistik hisobot, boshqaruv hisobi, ichki audit xizmati, buxgalteriya hisobi xizmati, konsalting xizmatlari, buxgalteriya hisobi milliy standartlari, auditning xalqaro standartlari, auditorlik tekshiruvi, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, moliyaviy-iqtisodiy faoliyat, hisob, nazorat va tahlil faoliyati, tashkiliy-boshqaruv jarayoni, ilmiy tadqiqot, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Birinchi prorektor ____________ **S. Islamov**

2023 yil «_18_» ___07___

M.O'.

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi**
**Ilmiy-tadqiqot, agromaslahat va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi**
boshlig'i ____________ **A. Shamsiyev**

2023 yil «_22_» ___07___

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi**
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor ____________ **Sh. Yakubov**

2023 yil «_21_» ___08___

M.O'.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Rektor ____________ **K.Sharipov**

2023 yil «_18_» ___07___

M.O'.

**O'zbekiston Auditorlar palatasi**

Kengash raisi ____________ **N. Karimov**

2023 yil «_20_» ___07___

M.O'.

**O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi**

Kengash raisi ____________ **M.Tulaxodjayeva**

2023 yil «_20_» ___07___

M.O'.

**Toshkent moliya instituti**

Rektor ____________ **T. Z. Teshabayev**

2023 yil «_17_» ___07___

M.O'.

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**
**60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

# KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil. “___” ___________2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori prof. K.A.Sharipov, Toshkent moliya instituti rektori, prof. T.Z.Teshabayev birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida) ta’lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent moliya instituti rektori, professor** **T.Z.Teshabayev**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, professor** **K.Sharipov**

**Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor** **S.Islamov**